оуоq-қо‘llarini yechibdi. Podsho bilan vazir o‘rinlaridan turib otlarini minib uydan chiqib ketishibdi. Qolgan mehmonlar yotib qolibdilar. Ertasiga podsho bir yasovulni chaqirib, «Kalla bozor mahallasida yashovchi uch qizni uydagi mehmonlari bilan tezda mening oldimga olib kell!» – deb buyruq beribdi. Yasovul kelib Mo‘tabarxonni ikkita singlisi va uydagi mehmonlari bilan birga saroyga olib kelibdi. Podsho ularga o‘rin ko‘rsatibdi, o‘tiribdilar. Podsho Mo‘tabarxonga: – Kecha uylaringizda bo‘lgan ishlarni bizga aytib bering. Nima uchun itlarni urdingiz va nima uchun yana quchoqlab o‘pib, ularga oltin tovoqda osh berdingiz? – debdi.

Mo‘tabarxon boshidan o‘tganlarini hikoya qilibdi: – Bizlar o‘sha mahallalik Salim degan boyning qizlari bo‘lamiz. Bizlar besh qiz edik. Ota-onamiz vafot etib, ulardan ko‘p mol-dunyo qoldi. Biz besh opa-singil maslahatlashib, o‘la-o‘lguncha erga tegmaslikka, ota-onamizdan qolgan mol-dunyo bilan yashashga qaror qildik. Shunga hammamiz rozi bo‘ldik. Kunlardan bir kuni mendan kichik ikkita singlim Adolatxon bilan Salomatxon erga tegmoqchi bo‘lishibdi. Ular menga maslahat soldilar. Men ularga erga tegmanglar, deb ko‘p nasihatlar qildim, lekin ular mening nasihatlarimni quloqqa olmadilar, shundan keyin men otamdan qolgan mol-dunyoni beshga bo‘lib, ikki bo‘lagini ikki singlimga berdim. Ular shu mollarni olib erga tegib, uydan chiqib ketdilar. Biz ikkita singlim bilan burungiday yuraverdik. Oradan besh-olti oy o‘tdi. Bir kun bizning darvozani birov kelib taqillatdi. Chiqib qarasam, Adolatxon. Meni ko‘rishi bilan yig‘lab yubordi. «Opajon, men sizning so‘zingizga kirmay bekor qilgan ekanman. Erim bor-budimni yeb, urib, meni uydan haydab chiqardi», dedi. Jigarim bo‘lgani uchun hech narsa deya olmadim. Bir qorindan tushgandan keyin rahming kelar ekan. Oradan yana besh-olti kun o‘tgandan keyin yana darvoza taqillab qoldi. Bu gal Salomatxon kelibdi. U Adolatdan ham yomon ahvolda qolibdi. Uni ham eri mol-mulkini yeb, urib haydab yuboribdi. Shunday qilib, bu ikkita singlimning gunohini kechib, o‘z oramizga qo‘shib yuraverdik. Oradan yana bir-ikkita oy o‘tgandan keyin Adolatxon bilan Salomatxon ikkalasi yana erga tegmoqchi bo‘lib menga maslahat soldilar. Men unamadim. Bular menga bo‘ysunmadilar.

жали жить вместе. Прошёл ещё месяц-другой, и Адолатхон с Саломатхон снова захотели выйти замуж и посоветовались со мной. Я была против. Они меня не послушались. Я сказала:

– Если выйдете замуж, больше не возвращайтесь. Если вернётесь, как в первый раз, не пущу вас в дом.

Сестры согласились. Я ничего не могла поделать и снова выдала их замуж с большим приданым. Нас снова осталось трое. Мы продолжали жить, веселясь и играя. Прошло время, и мужа Адолат и Саломат снова промотали всё их добро и прогнали их. Они пришли, обливаясь слезами, горько плача. Нам снова стало их жаль, и мы приняли их к себе. Какое-то время мы жили вместе, играя и развлекаясь. Я заметила, что наследство, оставленное отцом, тает. Однажды я сказала:

– Сёстры, давайте не будем больше бездельничать, пойдём по двое или по трое по городам торговать, а потом будем развлекаться. Кто пойдёт со мной торговать?

Адолатхон и Саломатхон захотели пойти со мной. Я согласилась. На следующий день мы втроём оделись в мужскую одежду, взяли половину нашего имущества, сели на корабль и

Men: «Agarda erga tegadigan bo'lsangiz yana qaytib kelmangiz. Endi burungi ahvolda keladigan bo'lsangiz uyimga kirgizmayman», – dedim. Singillarim rozi bo'lishdi. Hech narsa deymadim. Yana qancha mol-mulk bilan ularni uzatdim. Yana uch qiz qoldik. O'yin-tomoshamizni qilib yuravardik. Oradan vaqt o'tib, Adolat bilan Salomatning erlari dunyolarini yeb yana haydab yuboribdi. Ko'z yoshlarini oqizib zor-zor yig'lab keldilar. Yana rahmimiz kelib ularni oramizga qo'shdik. Bir qancha vaqt o'z o'yinlarimizni o'ynab, tomosha qilib yurdik. Qarasam, otamdan qolgan meros kamayib borayotir.

Bir kuni o'tirib: – Singillarim, endi biz bekor yotmaylik, ikki-uchtamiz shaharma-shahar yurib savdo qilaylik, tomoshamizni ham qilarmiz. Kim men bilan savdoga boradi, – dedim. Adolat bilan Salomatxon bizlar boramiz, deyishdi. Xo'p dedim. Ertasiga uchalamiz erkak kiyimlarni kiyib, yarim mollarimizni olib, kemaga o'tirib ketdik. Bir necha kun yo'l yurib, erta bilan boradigan shahrimizga borib tushdik. Qarasak, shahar



отправились в путь. Проплавав несколько дней, утром мы прибыли в город, куда направлялись. Смотрим – все жители города окаменели. Оставив товары на берегу моря, мы обошли город. Люди так и застыли – кто в открытых лавках, кто верхом на лошади. Ни одной живой души, никакого движения. Удивляясь этому, мы до вечера бродили по городу. Вечером вдалеке показался огонёк. Мы решили узнать, в чем дело, и вошли в этот освещённый дом. Там сидел приятный юноша и читал книгу. Он пригласил нас внутрь. Я начала разговор:

– Брат, в чем причина, что жители города оказались в таком состоянии?

– Жители этого города предались развлечениям и пьянству, за это и поплатились, – сказал юноша.

Мне понравилась мягкость и вежливость юноши. Я решила, что он мне подходит. Юноша тоже так решил и предложил пожениться. Я согласилась, но поставила условие. Я сказала, что выйду за него, если он поедет в наш город и там сыграет свадьбу со мной. Юноша согласился. На следующий день мы вместе сели на корабль и отправились в наш город, так и не продав привезённые товары. За день до прибытия в наш город ночью мы все легли спать. Пока мы спали, Адолат и Саломат встали, посоветовались, засунули юношу в мешок и бросили в реку. Когда на следующее утро рассвело, я не увидела юноши и спросила о нём у сестёр. Они сказали, что тоже его не видели. Я побежала и спросила о нём у капитана корабля. Он сказал:

– Ночью, пока юноша спал, твои сёстры засунули его в мешок и бросили в реку.

Тут я села и горько заплакала. Потом встала и прокляла сестёр. Когда мы прибыли в наш город и сошли с корабля, я сказала сёстрам:

– Я вам делала столько добра, а вы мне – только зло. Теперь я отрекаюсь и от вас, и от мирских благ.

Я оставила их и ушла в пустыню. Два дня я шла. Иду по дороге – навстречу ползёт белая змея. Я отошла в сторону. Змея проползла мимо. Иду дальше по дороге – ползёт чёрная змея. Я отошла в сторону и взяла большой камень. Когда змея приблизилась, я бросила камень и разбила змее голову. Продолжая идти вперёд, я устала, легла и уснула. Через какое-то время проснулась – рядом со мной сидит очень красивая девушка. Девушка поздоровалась со мной и спросила:

– Откуда идёшь, куда направляешься?

Я рассказала обо всем, что со мной произошло. Девушка сказала:

odamlarining hammasi tosh bo'lib yotibdi. Mollarni dengiz bo'yiga qo'yib shahar aylandik. Odamlar do'konlarini ochib qo'yganicha, otliqlar otlariga minganicha qotib qolgan. Hech bir jonli, qimirlagan odamzot yo'q. Bu ahvollarga ajablanib kechgacha shaharlarni aylanib yurdik, kechqurun yiroqda bir chiroq ko'rindi. Uchalamiz nima gapligini bilaylik, deb shu chiroqli uyga kirdik, bir yosh kelishgan yigit kitob o'qib o'tirgan ekan. Bizlarni ichkariga taklif qildi.

Men so'z boshlab: – Aka, shahar odamlarining bu ahvolga tushib qolganining sababi nima? – deb so'radim. – Bu shaharning odamlari, maishat va ichkiliklar bilan mashg'ul bo'lganlari uchun shu ahvolga giriftor bo'ldilar, – dedi yigit. Yigitning muloyimligi va yumshoq so'zligi menga yoqdi. Shu joyda o'tirib uni o'zimga munosib ko'rdim. Yigit ham mening ro'yushligimni bilib, turmush qurishni taklif qildi. Men rozi bo'ldim. Lekin shart qo'ydim. Bizning shaharga borasiz, to'y-tomosh qilib, nikohlab olsangiz tegaman, dedim. Yigit rozi bo'ldi. Ertasiga birgalashib, olib kelgan mollarimizni sotolmasdan qaytadan kemaga o'tirib o'z shahrimizga jo'nadik. Shahrimizga bir kunlik yo'l qolganda kechasi hammamiz yotib uxladik. Biz uxlaganda Adolat bilan Salomat o'rinlaridan turib, maslahatlashibdi-da, yigitni qopga solib, daryoga tashlab yuborishibdi. Ertasiga tong otganda qarasam, haligi yigit ko'rinmaydi. Singillarimdan so'radim. Biz ko'rganimiz yo'q, deyishdi. Yugurib kirib kema boshlig'idan so'radim.

U: – Kechasi ikkita singling yigitni uxlab yotganida qopga solib, daryoga tashlab yuborishdi, – dedi. Shu joyda o'tirib xo'p yig'ladim. Singillarimni chiqib qarg'adim. Shahrimizga kelib kemadan tushib, singillarimga men qancha yaxshiliklar qildim, sizlar menga dushmanlik qildinglar, endi men sizlardan ham, dunyo-moldan ham kechdim, deb ularni qoldirib, cholibiyonlarga qarab ketdim. Ikki kun yo'l yurdim. Bir yerda ketayotsam oldinda oq ilon kelayotir. Men yo'ldan chiqib o'zimni chetga tortdim. Ilon o'tib ketdi. Yana yo'lga tushib ketayotsam qora ilon yugurib kelayotir. O'zimni chetga tortib bir katta toshni olib turdim. Ilon yaqin kelganida toshni otib

– Брось, сестра, не расстраивайся, возвращайся домой.

Я ответила, что не пойду. Девушка сказала:

– Ты оказала мне большую помощь. Ты спасла меня от смерти, а я помогла тебе.

Я удивилась:

– Чем я тебе помогла? Я тебя сегодня впервые вижу.

Девушка сказала:

– Я была дочерью падишаха пери. Когда один дэв воспылал ко мне страстью и пришёл забрать меня, я убежала, превратившись в белую змею. Ты шла навстречу, уступила мне дорогу, и я проползла мимо.

Мой враг-дэв, гнавшийся за мной, был чёрной змеёй. Ты его убила, а иначе он бы убил меня. За твою доброту я превратила двух твоих сестёр, которые тебя обидели, в собак и привязала их во дворе твоего дома. Теперь иди домой, живи, развлекайся и ничего не бойся. Если тебе будет плохо, сожги мой волос, я приду и помогу тебе. Она вырвала три волоса, дала их мне и исчезла. Услышав это, я вернулась домой. Смотрю – и правда, двух моих сестёр превратили в собак и привязали во дворе. Так мы снова стали дружно жить втроём. Я бью собак перед тем, как дать им еду, потому что расстроена из-за того, что они бросили в реку полюбившегося мне юношу. А потом обнимаю и целую, потому что хоть они и собаки, но моя плоть и кровь, и мне их жаль, – закончила свой рассказ девушка.

Падишах спросил:

– А кто эти десять богатырей?

– Это богатыри, которых я наняла за деньги, чтобы они помогали мне в тяжёлые дни, – ответила девушка.

Падишах спросил Мутабархон:

– Этих двух собак можно превратить обратно в людей?

Мутабархон ответила:

– Не знаю, если кто и сможет, то только та девушка.

Падишах сказал:

– Тогда сожги волос той девушки, пусть она придёт.

Мутабархон вышла во двор, сожгла волос девушки, и та тут же явилась и сказала:

– Слушаюсь.

Мутабархон привела девушку-пери к падишаху.

ilonning boshini yanchib o'ldirdim. Yana oldimga qarab yurib charchab, bir yerda yotib uxlab qolibman. Bir vaqt o'rnimdan tursam, juda ham kelishgan bir chiroyli qiz yonimda o'tiribdi.

Qiz men bilan ko'rishdi va: «Qaydan kelasiz, qayoqqa borasiz?», deb so'radi. Men boshimdan o'tgan ishlarning hammasini aytdim.

Qiz: – Qo'ying, opa, xafa bo'lmang, uyingizga qayting! – dedi. Men, bormayman, dedim.

Qiz: – Siz menga katta yordam qildingiz. Meni o'limdan qutqardingiz, men ham sizga yordam qildim, – dedi.

Men hayron bolib: – Sizga nima yordam qildim? Sizni shu bugun ko'rib turibman, – dedim.

Qiz: – Men parilar podshosining qizi edim. Menga bir dev xushtor bo'lib meni olmoq bo'lib kelganida men oq ilon bo'lib qochayotgan edim. Siz yo'lda kelayotgan ekansiz. Menga yo'l bo'shatib berdingiz. Men o'tib ketdim. Mening orqamdan qora ilon bo'lib kelayotgan dushmanim – dev edi. Siz uni o'ldirdingiz, agarda siz uni o'ldirmaganingizda, u meni o'ldirar edi. Sizning yaxshiligingizga binoan sizni ranjitgan ikkita singlingizni kuchuk qilib hovlingizga boylab keldim, endi siz uyingizga borib o'yin-tomoshangizni qilib yuravering, hech narsadan qo'rqmang, boshingizga yomon kun tushsa, mana bu sochimni kuydirsangiz men kelib yordam beraman, – deb sochidan uch dona yulib berib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Men bu gaplarni eshitib uyimga qaytib keldim. Qarasam, haqiqatan ham ikkita singlimni ikkita kuchuk qilib boylab ketibdi. Shuning bilan yana biz uch opa-singil ahil yashayverdik. Kuchuklarga ovqat berar oldidan urganim haligi yaxshi ko'rgan yigitimni daryoga tashlab yuborganiga xafa bo'laman, o'pib, quchoqlaganim it bo'lsa ham jigirim, deb rahmim keladi, – debdi.

Podsho: – Haligi o'nta polvon qanday kishilar, – debdi. – U polvonlarga dunyo berib saqlaganman, boshimga og'ir kun tushsa yordamchim bo'ladi, – deb so'zini tamom qilibdi qiz.

Podsho Mo'tabarxonga: – Shu ikkita kuchukni odam qilish mumkinmi? – debdi.

Mo'tabarxon: – Bilmadim, odam qilsa shu qizning o'zi qilar, – debdi.

Падишах спросил у девушки-пери:

– Можно ли вернуть двух собак в прежнее состояние?

Девушка-пери ответила:

– Если моя сестра Мутабархон согласится, я верну их в прежнее состояние.

Привели собак. Девушка-пери прочла заклинание и вернула им прежний облик. Падишах увидел, что эти девушки тоже красавицы. Тогда он снова спросил у девушки-пери:

– А можно ли вылечить глаза этих трёх слепых?

Девушка-пери осмотрела их и сказала:

– Двое ослепли от колдовства, их можно вылечить, а одного нельзя. Потому что он ослеп не от колдовства, а от человека.

Падишах сказал:

– Ладно, тогда вылечи глаза тех двоих.

Девушка-пери прочла заклинание и полностью вылечила глаза двух слепых, вернула им зрение, как было раньше. Потом она сказала:

– А теперь, если позволите, я пойду.

Падишах разрешил. Девушка-пери попрощалась и исчезла. Падишах посоветовался со своим мудрым визирем и решил, что Мутабархон подходит в жены ему самому. А младшую Кароматхон счёл подходящей женой для своего сына. Остальных девушек он решил выдать за троих принцев, которых считали слепыми. Этот план падишах сообщил девушкам и юношам. Они согласились. Отцам двух принцев падишах написал письма: «Я хочу женить ваших пропавших сыновей в своём городе и прошу вас приехать на свадьбу». Письма послали падишахам. Падишахи, потерявшие сыновей, прочли письма и обрадовались. Взяв много даров, они через несколько дней прибыли в город. Увидев сыновей, они вручили падишаху привезённые подарки. Сорок дней и ночей шли свадебные торжества. После свадьбы два падишаха забрали сыновей с женами и уехали в свои города. Принца, у которого умер отец, падишах Акбар оставил у себя и усыновил. Так все они зажили в радости и веселье.

**Сказку
можно
послушать:**



Podsho: – Bo'Imasa shu qizning sochini kuydiring, kelsin, – debdi.

Mo'tabarxon hovliga chiqib qizning sochini kuydiribdi, qiz shu zahoti, xizmat, deb kelibdi. Mo'tabarxon qizni podsho oldiga olib kiribdi.

Podsho pari qizdan: – Ikki kuchukni o'z asliga keltirish mumkinmi? – deb so'rabdi.

Pari qiz: – Agarda Mo'tabarxon opam rozi bolsalar, men asliga keltiraman, – debdi. Kuchuklarni oldirib kelibdi. Pari qiz o'qib ularni o'zining avvalgi qiz holiga keltiribdi. Podsho ko'rdikim, bu qizlar ham bir-biridan chiroyli.

Podsho yana pari qizdan so'rabdi: – Mana bu uchta ko'rning ko'zlarini tuzatish mumkinmi? – debdi.

Pari qiz ularni ko'rib: – Ikkalasing ko'zi jodudan bo'lsa, bularni tuzatish mumkin, bittasini tuzatib bo'lmaydi. Nega desangiz bu jodu emas, odamdan bo'lgan, – debdi.

Podsho: – Mayli bo'Imasa, ikkalasing ko'zini tuzating, – debdi.

Pari qiz o'qib ikki ko'rning ko'zini soppa-sog', avvalgiday qilibdi.

Pari qiz: – Endi ruxsat etsangiz ketsam! – debdi. Podsho ruxsat beribdi.

Pari qiz xayr-xush, deb ko'zdan g'oyib bo'libdi. Podsho o'zining dono vaziri bilan maslahatlashib o'tirib Mo'tabarxonni o'ziga munosib ko'ribdi. Hammadan kichik Karomatxonni o'gliga munosib ko'ribdi. Qolgan qizlarni uchta ko'r nomini olgan shahzodalarga olib bermoqchi bo'libdi. Bu maslahatni qizlarga, yigitlarga aytibdi. Bular ham rozi bo'libdilar. Podsho otasi bor ikki shahzodaning otalariga «Sizning yo'qolgan o'g'illaringizni shahrimdan uylantirmoqchiman, to'yga kelishingizni so'rayman» deb, noma yozibdi. Nomalarni podsholarga yuboribdi. Bolalarini yo'qotgan podsholar nomani o'qib xursand bo'libdilar. Ko'p mukofotlarni olib necha kunlar yo'l yurib yetib kelibdilar. Bolalarini ko'rib, podshoga olib kelgan sovg'alarini berib, qirq kecha-kunduz to'y-tomoshalar qilib, to'ydan keyin ikki podsho o'g'il va kelinlarini olib o'z shaharlariga ketibdilar. Otasi o'lgan shahzodani shoh Akbar podsho o'zi bilan olib qolib, o'g'il qilib olibdi. Shuning bilan hammalari rohatda davron suribdilar.

Каждому свой труд дорог

В одной семье был единственный сын. Из-за того, что он был единственный, его баловали и исполняли все его желания. Когда сын вырос, отец позвал его и сказал:

– Сынок, ты уже взрослый, пора тебе овладеть каким-нибудь ремеслом, чтобы в будущем не попасть в беду!

Сын ответил:

– Хорошо.

На следующий день, когда он собирался идти работать, его остановила мать.

– Сынок, не мучай себя тяжёлым трудом, иди, играй со своими друзьями на улице. А когда вернёшься, отдай отцу вот эту монету, – сказала она и дала ему одну монету.

Сын радостно вышел на улицу и играл до вечера. Вернувшись домой, он увидел, что отец сидит у пруда. Сын подошёл к нему и сказал, что заработал эту монету. Отец взял монету и бросил её в пруд, а сын промолчал. На следующий день произошло то же самое.

Удивлённые происходящим, на третий день мать и сын сели, чтобы обсудить ситуацию.

– Кажется, отец знает, что я приношу деньги, не заработав их. Сегодня я пойду поработаю и посмотрю, что будет, – сказал сын и отправился поработать у одного человека, чтобы заработать деньги.

Вечером, вернувшись домой, он отдал деньги отцу, но отец снова бросил монету в пруд. Сын нахмурился, снял одежду и бросился в пруд за ней. Там он нашёл ту самую монету и вытащил её. Тогда отец сказал сыну:

– Видишь, сынок, то, что заработано своим трудом, всегда дорого человеку.


Har kimning mehnati o'ziga shirin

Вир ота-онанинг yakka-yu yagona o'g'li bo'lgan ekan. Yolg'izligi sabab bolani erkalatib, ko'ngliga qarab katta qilishibdi. Bola voyaga yetgach, otasi o'g'lini chaqirib: «O'g'lim, endi katta bo'lib qolding, biror hunar o'rgan, oxirida xor bo'lmayсан!» – debdi. Bola, «xo'p», debdi. Ertasi kuni ishga ketayotganida uni onasi to'xtatib: – O'g'lim, sen og'ir mehnat qilib joningni qiynab yurma, ko'chaga chiqib o'rtoqlaring bilan o'yna, qaytib kelganingda otangga mana buni berarsan, – deb bir tanga pul beribdi. Bola xursand bo'lib ko'chaga chiqib ketibdi. Kechgacha o'ynab yuribdi. Uyiga kelsa, otasi hovuz bo'yida o'tirgan ekan. Onasidan olgan pulini «o'zim ishlab topdim», deya otasiga beribdi. Ota tangani olib hovuzga tashlabdi. Bola indamabdi. Ertasiga ham shu voqea qaytarilibdi. Bu holdan hayron bo'lgan ona va bola uchinchi kuni o'tirib maslahatlashibdi. – Otam bu pulni mehnat qilmasdan olib kelganimni bilganga o'xshaydi. Endi bugun mehnat qilib pul topib kelay-chi, nima qilar ekan? – debdi-da, bir odamnikida xizmat qilib pul topibdi. Kechqurun uyiga kelib otasiga bersa, otasi u pulni ham hovuzga tashlabdi. Bola otasiga

bir xo'mrayib qarabdi-da, kiyimlarini yechib, o'zini hovuzga tashlabdi. Haligi bir tangani topib chiqibdi.

Shunda otasi o'g'liga:

– Ko'rdingmi, o'g'lim, o'z mehnating bilan topilgan daromad – pul qadrlı bo'ladi, – degan ekan.



**Сказку
можно
послушать:**



ЧЕСТНЫЙ ТРУД

Давным-давно жил один богач. У него было огромное богатство и единственный сын. Мальчик с детства рос избалованным и капризным. После смерти отца всё имущество досталось этому сыну, и он тратил богатство на ежедневные пиры и гулянья со своими друзьями и приятелями. Когда всё богатство закончилось, друзья перестали к нему приходить. Когда богач пытался навестить своих приятелей, они даже не смотрели ему в лицо. Богач очень расстроился и горько сожалел о своих поступках.

Однажды, не зная, что делать, он попросил совета у матери. Мать сказала:

– Сынок, богатство, оставленное твоим отцом, не принесло тебе пользы, и друзья отвернулись от нас. Ты сам не работал, избегал труда. В итоге ты оказался в таком положении. Теперь, сынок, если ты выйдешь в мир, найдёшь честного человека, которому будешь хорошо служить, и начнёшь зарабатывать честным трудом, то твоя жизнь наладится, и ты будешь счастлив.

Юноша, выслушав слова матери, взял мешок хлеба и мотыгу и отправился искать честного человека, которому он мог бы служить. Долго, очень долго шёл юноша, пока не пришёл в одну деревню к одному крестьянину. Он поприветствовал его.

– Дедушка, – сказал он, – я пришёл издалека, чтобы служить человеку, который живёт честным трудом. Я слышал, что ваш труд честен. Возьмите меня на службу.

Дедушке-крестьянину было уже больше шестидесяти лет, борода и волосы у него были седые. Услышав эти слова, он почтительно принял юношу и устроил в его честь угощение. Во время угощения он сказал:

– Сынок, я тоже думал, что мой хлеб честен. Но недавно это стало не совсем так. Рядом с моим полем есть другое поле, там работает другой крестьянин.

И вот мой бык поел его пшеницу. Пока я не возьму ему все убытки, я не могу считать свой труд честным. Но если ты пойдёшь в соседнюю деревню, то найдёшь там моего брата по имени Эралибой – у него действительно честный труд. Ступай к нему.

Юноша провёл у крестьянина ночь, а утром отправился в путь.

Он пришёл в соседнюю деревню и хотел спросить про Эралибоя, как вдруг ему навстречу вышел старик с седой бородой.

HALOL MEHNAT

Вurungi o'tgan zamonda bir boy yashagan ekan. Uning juda katta boyligi bolib, bitta-yu bitta o'g'li bolgan ekan. Bola yoshligidan erka va arzanda, tantiq bolib o'sibdi. Otasidan keyin barcha mol-u dunyo shu o'g'liga qolibdi va u faqat oshnalari hamda ulfatlari bilan har kuni ziyofat ustiga ziyofat, bazm ustiga bazm qurib, bor boyligini sarflab bo'libdi. Barcha boylik batamom tugagach, yor-u jo'ralari ham kelmay qolibdi. Oshnalarinikiga borsa, boyvachchaning yuziga ham qarashmabdi. Boyvachcha o'z-o'zidan nihoyatda xafa bo'libdi, afsus-nadomatlar chekibdi. Kunlardan bir kuni, nima qilishini bilmay, onasidan maslahat so'rabdi. Onasi: – Ey, bolam, mana, otangdan qolgan boylik senga vafo qilmadi, do'st-birodarlaring ham bizdan yuz o'girdi. Sen o'zing esa mehnat qilmading, mehnatdan qochding. Oxir-oqibatda mana shu ahvolda tushding. Endi, bolam, el aro chiqib, bir halol mehnat qiladigan kishiga sidqidildan xizmat qilib, halol non topsang, shunda turmushing but, o'zing baxtli bo'lasan, – debdi. Shundan keyin yigit onasining so'zini olib, bir chanoch non bilan qo'liga bir ketmon olib, «hayt» deb halol kishiga xizmat qilish uchun jo'nab ketibdi. Yigit yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yurib, bir qishloqda bir dehqonnikiga boribdi, u dehqonga salom beribdi. – Qani, bobo, men halol mehnatning orqasidan kun kechiradigan kishiga xizmat qilaman, deb uzoq yerdan keldim, sizning mehnatingizni halol deb eshitdim. Meni xizmatga olsangiz, – debdi. Dehqon bobo oltmishdan oshgan, soch-soqoli oqargan kishi ekan. Bobo bu gapni eshitib yigitni juda ham izzat qilib, uning hurmatiga ziyofat beribdi. Ziyofat ustida: «O'glim, men ham nonim halol deb yurgan edim. Lekin mening nonim ham biroz shubhali bo'ldi. Chunki men qo'sh qo'shganimda mening yerimga yaqin joyda bir dehqonning yeri ham bor edi. Ho'kizimiz shuning bug'doyidan bir tishlam yeb qolgan. Men u dehqonni hali rozi qila olganimcha yo'q. Shuning uchun nonimning halolligiga ko'nglim to'lmaydi. Mana shu qishloqdan narigi qishloqqa olsangiz, mening Eraliboy degan akam bor. Ana shu akamning nonini halol desa bo'ladi. Shu akamnikiga

Юноша спросил у него:

– Где дом дедушки Эрали?

А тот ответил:

– Я и есть дедушка Эрали.

Дедушке Эрали было почти семьдесят лет. Но он был бодрее своего младшего брата, и борода у него ещё не совсем поседела. Юноша сказал:

– Дедушка, я ищу честный труд, я буду служить тому, чей труд и хлеб праведны.

Тогда дедушка Эрали ответил:

– Ох, сынок, мой хлеб был праведным, но недавно это стало не совсем так. На мою землю упало зерно пшеницы моего соседа, и эта пшеница проросла, дала колос и созрела. Я отнёс это зерно хозяину, но солому вернуть не смог. Поэтому я не могу сказать, что мой хлеб праведный.

Юноша не знал, что делать и что ответить. Тогда сам дедушка Эрали сказал:

– Если ты пойдёшь в соседнюю деревню, то найдёшь там моего старшего брата по имени Шералибой. Может быть, у него хлеб праведный.

Юноша переночевал у старика, его приняли с большим почётом. Восхищенный крестьянином Эрали, он поблагодарил его и отправился в путь.

Юноша прибыл в деревню Шералибоя уже поздно вечером. Он спросил, где дом крестьянина по имени Шералибой. Услышав об этом, Шералибой сам вышел встречать юношу и хорошо его принял. Тогда юноша сказал:

– Дедушка, я ищу честный труд, я прибыл издалека, чтобы служить вам, так как слышал, что ваш труд и хлеб праведны.

Шералибою было за семьдесят, почти восемьдесят лет, но он был ещё крепок, прям и черноволок. Увидев это, юноша удивился и подумал, что если и есть праведный хлеб, то это хлеб этого крестьянина. Шералибой сказал:

– Сынок, мой хлеб и вправду праведный, я работаю в поте лица и ем хлеб, добытый своим трудом. Но я готов дать работу честному, прямодушному человеку.

Так юноша нанялся работать у Шералибоя на год за одну монету. Все это время юноша не лгал и честно трудился. Прошёл год.

На следующий день юноша хотел выровнять землю и собрался ударить киркой, но дедушка подбежал и отобрал у него кирку, сказав:

– Сынок, ты честно служил год за одну монету. Если ты сейчас ударишь этой киркой, мне достанется лишняя часть твоего труда.

boring», – deb javob berib yuboribdi. Yigit ertalabgacha dehqon bobonikida mehmon bo'lib, keyin jo'nab ketibdi.

Yigit Eraliboynikini so'rab borsa, oldidan bir ko'kala soqolli kishi chiqibdi, U kishidan: – Erali boboning uyi qaysi? – deb so'rabdi. Shunda u: – Erali bobo men bolaman, – debdi. Erali bobo yetmish yoshga yaqinlashib qolgan chol ekan. Lekin hali ukasidan ancha tetik, soqoli ham uncha oqarmagan ekan. Yigit: – Bobo, men mehnattalab bolaman, kimning mehnati va oshi halol bolsa, shunga xizmat qilaman, – debdi. Shunda Erali bobo: – E, bolam, mening nonim halol edi, yaqinda halolligi ozroq shubhali bo'ldi, chunki mening yerimga bir qo'shnimning bir dona bug'doyi tushib, shu bug'doy o'sib, bosh tortib boshi pishdi. Men shu bir tup bug'doyning donini egasiga olib borib berdim-u, lekin somonini bera olmadim. Shuning uchun men o'z nonimni halol deb ayta olmayman, – debdi. Bola nima qilishini, nima deb javob berishini bilmay turgan ekan, Erali boboning o'zi: – Mana shu qishloqdan narigi qishloqqa o'tsangiz mening Sheraliboy degan akam bor. Shu kishining noni halol bo'lsa, ajab emas, – debdi. Yigit bu yerda ham bir kecha yotib, juda izzat-u hurmat ko'ribdi. Erali dehqonga qoyil qolib, rahmat aytib, jo'nab ketibdi. Yigit yo'lga tushib kech kirgan paytda Sheraliboyning qishlog'iga yetib boribdi. Sheraliboy degan dehqonning uyini so'roqlabdi. Bundan xabar topgan Sheraliboy yigitga peshvoz chiqib, uni yaxshi kutib olibdi. Shunda yigit: – Bobo, men mehnattalab bolaman, sizning mehnatingiz va noningiz halol deb eshitib, xizmatigingizga uzoq joydan keldim, – debdi. Sheraliboy yetmishdan oshib, saksonga yaqinlashgan ekan, lekin hali o'zi baquvat, qaddi tik, soqoli qop-qora ekan. Buni ko'rib yigit hayron bo'lib qolibdi va halol bo'lsa shu dehqonning noni halol bo'lar, deb o'ylabdi. Sheraliboy: – Bolam, mening nonim haqiqatan ham halol, mehnat qilib, peshona teri to'kib non yeb kelayotirman. Lekin men halol mehnat qiladigan, to'g'ri-so'z kishiga ish beraman, – debdi. Shunday qilib, yigit Sheraliboynikida bir tanga pul evaziga bir yil ishlashga kelishibdi. Bu paytda yigit yolg'on gapirmabdi, halol mehnat qilibdi. Oradan bir yil vaqt o'tibdi.

Kunlardan bir kuni yigit bir joyni tekislayman deb ketmon qo'yimoqchi bo'lgan

Сказав так, Шералибой дал юноше одну монету, благословил его и отправил в путь. Юноша тепло попрощался с бабушкой и вышел в путь в хорошем настроении.

По дороге он встретил длинный караван из сорока верблюдов, гружённых разными драгоценными украшениями и одеждой. Юноша обратился к караванщикам:

– Счастливого вам пути, караванщики. Куда направляетесь?

Караванщики ответили, что если будет суждено, они направляются в город Зилол.

Юноша сказал:

– Я тоже из города Зилол. Там у меня семья, мать и жена. У меня к вам просьба: я хочу купить и отправить своей семье, матери и жене, одежду и немного фруктов, не могли бы вы взять всё это с собой и передать им?

Караванщики согласились. Юноша купил на свою монету фрукты и одежду и передал караванщикам. А сам продолжил путь.

Послушайте теперь рассказ о караванщиках. Долго, очень долго ехали караванщики, и вдруг им навстречу вышли двое гонцов от падишаха¹. Гонцы сказали:

– Эй, караванщики, у нас большая беда. Дочь падишаха очень больна, врачи осмотрели её и сказали, что ей поможет только гранат, надо выжать из него сок и дать ей выпить. В нашей стране гранатов нет. У вас случайно нет гранатов?

Глава каравана ответил:

– У нас есть гранаты, но они не наши. Они принадлежат одному юноше, как мы можем обмануть его доверие и отдать их вам?

– Тогда, – сказали гонцы, – мы поедем вместе с вами, уговорим семью юноши и возьмём часть его гранатов.

И они поехали вместе с караваном.

Глава каравана передал гранаты и одежду жене и матери юноши. Гонцы, которые приехали вместе с ним, попросили у семьи юноши четыре граната. Жена юноши приняла гонцов с большим почётом и уважением и, не взяв с них ни монеты, подарила дочери падишаха несколько гранатов. Гонцы были очень довольны и рассказали падишаху о случившемся. Падишах обрадовался и одарил их. Дочь падишаха съела гранаты, исцелилась от болезни и выздоровела. Обрадованные шах и его жена вызвали гонцов и отправили семью юноши,

ekan, bobo chopib borib ketmonini tortib olibdi-da: – Bolam, mana, bir tangaga bir yil halol xizmat qilding. Endi bu ketmonni ursang, menga sening haqing ketadi, – debdi. Sherali bobo shunday deb yigitga bir tanga berib, haqiga duo qilib, jo'natib yuboribdi. Yigit bobosi bilan xayr-ma'zurni quyuq qilib, dimog'i chog' bo'lib yo'lga chiqibdi. Yo'lda juda katta bir karvon qirq tuyaga har xil qimmatbaho zeb-ziynat, kiyim-kechak ortib borayotgan ekan. Yigit karvonlardan, qani karvon bobolar, sizlarga yo'l bolsin, deb so'rabdi. Karvonlar, nasib etsa shahri Zilolga boramiz, debdi. Yigit: – Men ham shahri Ziloldan bo'lam. Shahri Zilolda mening oilam, onam va xotanim bor. Sizlardan iltimos, men bozor qilib, oilamga, onamga va xotimga kiyim-kechak va biroz meva-cheva berib yuborsam, olib borib berasizlarmi? – debdi. Karvonlar rozi bo'lishibdi. Yigit haligi tangasiga bir-ikki chorak meva-cheva bilan bir qancha kiyim-kechak olib, karvonlarga topshiribdi. O'zi yo'lda davom etibdi. Gapni karvonlardan eshiting. Karvonlar yo'l yurib, yo'l yursayam oz emas, mo'l yurib, bir joyga borganda oldidan ikkita podshoning chopari chiqib qolibdi. Choparlar: – Ey, karvonlar, bizning mushkulimiz juda ham og'ir. Shahar podshosining qizi nihoyatda kasal, uni tabiblar ko'rib, dardiga faqat anor shifo bo'ladi, ezib suvini ichiringlar, deysildi. Bizning mamlakatda anor bo'lmaydi. Mabodo sizlarda anor yo'qmi? – deb so'rashibdi. Karvonboshi: – Bizlarda anor bor-u, lekin omonat-da. Bir yigitniki, qanday qilib, omonatga xiyonat qilib, uni sizlarga beramiz? – debdi. – Bo'lmasa, – debdi choparlar, – bizlar sizlar bilan birga borib, yigitning oilasini rozi qilib, anoridan olib kelamiz, – deb karvonlar bilan birga boribdi. Karvonboshi anor, kiyim-kechakni yigitning oilasi va ota-onasiga beribdi. Haligi birga borganlar yigitning oilasidan to'rt dona anor so'rabdi. Yigitning xotini choparlarni izzat-u hurmat va ehtirom bilan qarshi olib, ulardan bir tanga ham pul olmay, podshoning qiziga bir nechta anor sovg'a qilibdi. Choparlarning nihoyatda dili chog' bolib, podshohga voqeani aytib berishibdi. Podsho xursand bo'lib, ularga sarpolar beribdi. Podshoning qizi anor yeb, darddan forig' bo'lib, tuzalib ketibdi. Bundan xursand bo'lgan shoh va malika choparlarni chaqirib, anor bergan yigitning oilasiga bir qancha qimmatbaho

¹ Падишах – правитель, царь.

давшей им гранаты, много ценных вещей, украшений и царских одежд. Семья юноши получила эти подарки и была очень счастлива и довольна. Жена юноши, получив большое богатство, построила несравненный чудесный дворец и жила там с матерью юноши. Когда юноша уезжал, его жена была беременна, прошло время, и родился ребёнок. Младенец рос и вырос, ему исполнилось семь, а потом и восемь лет.

А теперь послушайте рассказ о юноше.

После того, как он попрощался с караваном, юноша пять лет честно трудился у одного садовника. Садовник был очень доволен его трудом. Юноша освоил у садовника множество ремёсел: выращивание цветов, уход за ними, прививку растений, уход за виноградом, выращивание яблок, гранатов, груш. Они с садовником подружились и стали как отец и сын. Они вдвоём стали собирать в саду выращенные ими цветы и продавать их на базаре. Букеты, которые составлял юноша, полюбились дочерям падишаха, беков² и визирей³, они стали платить за них в два-три раза больше, и юноша с садовником сильно разбогатели.

Однажды юноша попросил у садовника-отца разрешения поехать в свой родной город Зилол. Садовник дал юноше тысячу монет и сказал:

– Купи на базаре хорошего резвого коня и поезжай верхом.

Юноша взял тысячу монет, пришёл на базар, а там один старик ходит и говорит:

– Эй, добрые люди, у меня есть один совет. Продам тому, кто даст тысячу монет.

Юноша сказал:

– Дедушка, вот вам тысяча монет, – и отсчитал тысячу монет.

Тогда старик сказал:

– Сынок, если разозлишься – проглоти свою злость.

– И всё? – спросил юноша.

– Это и есть мой совет, – сказал старик.

Юноша купил совет за тысячу монет и вернулся к садовнику ни с чем. На следующий день садовник дал ему ещё тысячу монет и отправил на базар. Юноша пошёл на базар купить коня, а там снова тот старик ходит и говорит:

– Эй, добрые люди, у меня есть один совет, скажу тому, кто даст тысячу монет.

buyumlar, zeb-u ziynatlar, shohona libo-slar berib yuboribdi. Yigitning oilasi bu sovg'alarni olib, g'oyatda vaqti xush va shod-u xurram bo'libdi. Yigitning xotini juda ko'p boylikka ega bo'lib, o'xshashi yo'q bir ajoyib qasr qurdirib, yigitning onasi bilan yashayveribdi. Yigit ketayotganda xotini homilador ekan, vaqt o'tib, farzand tug'ilibdi. Chaqaloq o'sib ulg'ayib, yetti-sakkiz yoshga to'lib qolibdi. Endi gapni yigitdan eshiting.

Yigit karvonlardan ajralgandan keyin bir bog'bonnikida besh yil halol mehnat qilibdi. Uning mehnatidan bog'bon ham nihoyatda xursand bo'libdi. Yigit bog'bondan juda ko'p hunarlarni: gul ekish, uni parvarish qilish, payvandlash usullarini, tokka qarash, olma, anor, nokni parvarishlash kabi ishlarni juda mukammal o'rganib olibdi. Bog'bon bilan ikkalasi inoqlashib, xuddi ota-boladay bo'lib ketishibdi. Har ikkalasi ham bog'da o'zlari parvarish qilgan gullardan saralab terib, bozorga chiqarib sota boshlabdi. Yigit tayyorlagan guldastaga podshoh, beklar va vazirlarning qizlari ishqiboz bo'lib, ikki-uch baravar ortiq pul to'labdilar va undan yigit bilan bog'bon nihoyatda boy bo'lib ketibdi. Kunlardan bir kuni yigit bog'bon otasidan o'z yurti, shahri Zilolga jo'namoqchi bo'lib ruxsat so'rabdi. Bog'bon yigitga ming tanga berib: – Bozordan bir yaxshi uchqur ot olib keling, minib ketasiz, – debdi. Yigit ming tangani olib bozorga borsa, bir mo'ysafid chol: – Hoy yaxshilar, bir nasihatim bor. Ming tanga berganga sotaman, – deb yurgan ekan. Yigit: – Bobo, mana sizga ming tanga, – deb ming tangani sanab beribdi. Shunda bobo: – Bolam, achchig'ing kelsa ichingga yut, – debdi. – Bo'ldimi? – debdi bola. – Nasihatim shu, – debdi bobo. Yigit nasihatni ming tangaga sotib olib, bog'bon otasinikiga quruq qaytib boribdi. Bog'bon ertasiga yana ming tanga berib, bozorga jo'natibdi. Yigit bir ot olaman deb bozorga borsa, yana haligi chol: «Hoy yaxshilar, bir nasihatim bor, ming tanga berganga aytaman», – deb yurgan emish. Bola: – Bobo, mana ming tanga, – deb tangani sanab beribdi. Bobo: – Bolam, ajal yetmay chirkay o'lmas, – debdi. – Bobo, nasihatingiz shum, – debdi yigit. Bobo: – Shu, – debdi. Yigit yana bozordan quruq qaytibdi. Bog'bon unga hech nima demay, ertasiga yana ming tanga sanab berib, bozorga

2 Бек – властитель, князь, господин.

3 Визирь – министр, помощник падишаха, царя.

Юноша сказал:

– Дедушка, вот тысяча монет, – и отсчитал монеты.

Старик сказал:

– Сынок, пока не наступит срок, и комар бессмертен.

– Дедушка, это и есть ваш совет? – спросил юноша.

– Он самый, – ответил старик.

Юноша снова вернулся с базара ни с чем. Садовник ничего ему не сказал и на следующее утро снова отсчитал ему тысячу монет и отправил на базар. Юноша пришёл на базар, а там снова тот старик ходит и говорит:

– Эй, добрые люди, у меня есть совет, скажу тому, кто даст тысячу монет.

Юноша сказал:

– Дедушка, вот тысяча монет, скажите ваш совет.

Старик сказал:

– Каждому мил тот, кого он любит.

Юноша и этот совет купил за тысячу монет, а потом подумал про себя: «Ладно, не буду больше обижать садовника-отца», – и отправился в путь пешком.

Шёл он, шёл и много прошёл, пока не встретил караван. Он спросил у караванщиков:

– Куда путь держите?

Глава каравана ответил:

– Едем в город Зилол.

– Если едете в город Зилол, возьмите и меня с собой, – попросил юноша.

Глава каравана согласился. Юноша присоединился к караванщикам и пошёл с ними, и много прошёл. Шли они, шли и вышли в пустыню. В пустыне был один колодец. Караван измучился от жажды и подошёл к этому колодцу. Караванщики опустили в колодец ведро, но воды не было, опустили снова, но вода из колодца не поднималась. После этого караванщики одного за другим спустили в колодец четырёх погонщиков верблюдов, но ни один из них не вернулся. Тогда глава каравана сказал юноше:

– Давай, юноша, спускайся ты. Если не будет воды, мы все до одного погибнем.

Юноша долго думал и наконец решил: «Дедушка говорил: пока не настал срок, и комар бессмертен. Если мой срок пришёл, умру в этом колодце, если не пришёл – выберусь живым», – и спустился в колодец с ведром.

jo'natibdi. Yigit bozorga borsa, yana shu chol: «Hoy yaxshilar, bir nasihatim bor, kimda-kim ming tanga bersa aytaman», – deb yurgan emish. Yigit: – Bobo, mana ming tanga, nasihatingizni ayting, – debdi. Bobo: – Har kimning sevgani o'ziga yaxshi, – debdi. Yigit bu nasihatni ham ming tangaga olib, keyin o'ziga o'zi: «Kel endi, yana bog'bon otamga jabr qilmayin», deb yayov yo'lga chiqibdi. Yo'l yurib, yo'l yursayam mo'l yurib, bora-bora karvonga yo'liqibdi. Karvonlardan: – Yo'l bo'lsin? – deb so'ragan ekan, karvon boshlig'i: – Shahri Zilolga ketyapmiz, – debdi. – Shahri Zilol borsangizlar, meni ham hamroh etib ola ketinglar, – debdi yigit. Karvon boshlig'i rozi bo'libdi. Yigit karvonlarga qo'shilib yo'l yuribdi, yol yursa ham mo'l yuribdi. Bora-bora cho'l-u biyobonga chiqib ketibdi. Chol-u biyobonda bir quduq bor ekan. Karvon chanqab, horib shu quduqqa boribdi. Karvonlar quduqqa qovg'asini tashlabdi, hech suv kelmabdi, yana tashlabdi, quduqdan suv chiqmabdi. Shundan keyin karvonlar birin-ketin to'rt tuyakashni quduqqa tashlagan ekan, ulardan bittasi ham qaytib chiqmabdi. Keyin karvonboshi yigitga: – Qani, yigit, sen kir. Agar suv bo'lmasa, bitta qolmay qirilib ketamiz, – debdi. Yigit o'ylab-o'ylab: «Bobo, ajal yetmay chirkay o'lmas, degan edi. Kel-ey, ajalim yetsa, shu quduqning ichida o'larman, ajalim yetmasa, o'lmasdan qaytib chiqarman», – deb quduqqa qovg'a bilan tushibdi. Quduqning tagida ikkita bahaybat dev gaplashib o'tirgan emish. Birovi bir parini quchoqlab o'tirgan bo'lsa, birovi bir toshbaqani quchoqlab o'tirgan emish. Yigit quduqqa tushgandan keyin devlarning biri: – Qani ayt-chi, ey, odamzot. Bu yaxshimi, u yaxshimi, – deb so'rabdi. Yigit o'ylab turib: «Bobo, har kimning sevgani o'ziga yaxshi degan edi, shuni aytaman», debdi va «Ey, barzangilar, har kimning sevgani o'ziga yaxshi-da», – debdi. Shunda devlar: – Qancha suv kerak bo'lsa, olaver, – deyishibdi. Yigit juda ko'p suv tortib, karvonlarni va uning tuyalarini o'limdan qutqarib qolibdi. Haligi to'rt tuyachidan devlar: «Pari yaxshimi, toshbaqa yaxshimi?» – deb so'raganda: «Albatta, toshbaqadan pari yaxshi», degani uchun toshbaqani sevgan dev ularni o'ldirgan ekan. Ularning o'ligini ham chiqarib, shu joyga dafn etishibdi. Yigitning mehnati

На дне колодца сидели и разговаривали два огромных дэва⁴. Один обнимал пери⁵, а другой – черепаху. Когда юноша спустился в колодец, один из дэвов спросил:

– Ну-ка скажи, человек. Кто лучше, пери или черепаха?

Юноша подумал: «Дедушка говорил: каждому мил тот, кого он любит, так и скажу», – и сказал:

– Эй, богатыри, каждому мил тот, кого он любит.

Тогда дэвы сказали:

– Бери столько воды, сколько нужно.

Юноша набрал много воды и спас караванчиков и их верблюдов от смерти. Оказывается, когда дэвы спрашивали у тех четырёх погонщиков, кто лучше – пери или черепаха, те ответили: «Конечно, пери лучше черепахи», и дэв, который любил черепаху, убил их. Их тела тоже подняли и похоронили там же.

В благодарность за труды все караванчики дали юноше по верблюду и подарили подарки. У юноши набралось сорок верблюдов, он составил свой караван и отправился в город Зилол. Смотрит, а на месте его двора построен большой дворец. «Вот так чудо», – удивился он, оставил верблюдов и вошёл внутрь, а там в большой комнате лежала его жена с высоким статным юношей, и у головы её горела свеча.

Когда юноша уезжал, у него не было детей, и, увидев жену с другим юношей, он подумал: «Ага, решила, что я умер, и вышла замуж», – и хотел зарубить обоих. Потом подумал про себя: «Я ведь купил совет за тысячу монет: если разозлишься – проглоти свою злость». Дай-ка последую ему, проглочу злость, посмотрим, что скажет жена», – и разбудил жену, а она сказала:

– Ой, вы вернулись? Вот, вашему сыну Шербдану уже исполнилось восемь лет. Прошло девять лет с тех пор, как вы уехали, – и она была на седьмом небе от радости.

Юноша последовал совету, купленному за большие деньги, и узнал правду. Деньги, заработанные честным трудом, и купленные советы позволили юноше жить богато и счастливо.



evaziga karvonlar bittadan tuya va sovg'a-salomlar berishibdi. Yigitning tuyasi qirqta bo'lib, bir karvon qilib, shahri Zilolga boribdi. Qarasa hovlisining o'rnida bir katta qasr bino bo'libdi. «Vo ajabo», deb hayron qolib, tuyalarini qo'yib, ichkariga kirsam, bir katta binoning ichida xotini boshiga sham yoqib qo'yib, uzun, kelishgan birov bilan yotgan emish. Yigit jo'nab ketayotganda befarzand ekan, xotini begona bilan yotganini ko'rib, «Ha, meni o'lib ketdi, deb, xotim erga tegib olibdi-da», – degan xayolda haligi yotganlarning ikkovini ham chopib tashlamoqchi bo'libdi. Keyin o'ziga-o'zi, men «Achchig'ing kelsa ichingga yut», degan nasihatni ming tangaga sotib olgan edim-ku. Kel, shunga amal qilib achchig'imni yutayin, qani, xotim nima der ekan, deb xotini uyg'otsa, u, «Voy otasi, kelib qoldingizmi? Mana, o'glingiz Sherbadan ham sakkiz yoshga to'ldi. Ketganingizga to'qqiz yil bo'ldi», – deb xursandchilikdan boshi ko'kka yetibdi. Yigit qimmatli nasihatga amal qilib, haqiqatning tagiga yetibdi. Halol mehnat evaziga topilgan pulni sarflab, olgan nasihatlari yigitni boy-badavlat, farog'atda yashashiga sabab bo'lgan ekan.

4 Дэв – злой дух.

5 Пери – фантастическое существо в виде прекрасной девушки.

**Сказку
можно
послушать:**



Подготовка публикации: БФ «ПСП-фонд» (Санкт-Петербург)

Составители: С.Д. Алламуродова, Б.Л. Панич, Т.В. Кузьмина
Иллюстрации: Виктория Устинова
Перевод: Зарнигор Омониллаева, Оминахон Кудратуллаева
Звукорежиссер и диктор аудиоверсии: Е.А. Рогова
Редакторы: Б.Л. Панич, М.Б. Панич, А.В. Удьярова

Сказки без границ.
Русские и узбекские народные сказки.

Материалы для работы с детьми и их родителями по тематике изучения русского языка, культуры, миграционных процессов можно найти на порталах

migrussia.ru



mircoalition.org



Контакты:

e-mail: bp@psp-f.org, <https://vk.com/pspfond>

Публикация подготовлена в рамках проекта «Язык дружбы. Распространение методик и практик изучения русского языка и межкультурного сотрудничества в молодежной среде в странах Средней Азии» с использованием гранта Президента Российской Федерации на развитие гражданского общества, предоставленного Фондом президентских грантов.

Подписано в печать
Тираж 500 экз. Заказ №
Отпечатано в копи-центре L-Print
197183, г. Санкт-Петербург,
Сабиловская ул., д. 37, литер Д, к. 206

